



JANUBIY QASHQADARYO HUDUDIDA QO‘LLANUVCHI SOMATIK IBORALAR

SOMATIC EXPRESSIONS USED IN THE SOUTHERN KASHKADARYA REGION

Normirzayeva Mohigul.

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti Filologiya va tillarni o‘qitish yo‘nalishi

I kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Islomova Shoira

Annotatsiya: mazkur maqolada Janubiy Qashqadaryo hududi shevasida keng qo‘llaniladigan somatik iboralar tahlil qilinadi. Somatik iboralarning lingvistik xususiyatlari, semantik qatlamlari hamda ularning inson ruhiy holati, hissiy kechinmalari va xarakterini ifodalashdagi o‘rni yoritib beriladi. Tadqiqotda somatik iboralarning nutqiy vaziyatni aniqlashtirish, muloqotning emotsional ta’sirini kuchaytirish hamda fikrni ixcham va obrazli ifodalashdagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, ushbu iboralar orqali Janubiy Qashqadaryo aholisi mentaliteti, milliy qadriyatlari va nutq madaniyatining o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: somatik iboralar, Janubiy Qashqadaryo shevasi, frazeologik birliklar, hududiy leksika, ruhiy holat, obrazli nutq, milliy mentalitet.

Annotation: this article analyzes somatic expressions widely used in the dialect of the Southern Kashkadarya region. The linguistic features and semantic layers of somatic expressions, as well as their role in expressing a person’s psychological state, emotional experiences, and character traits, are examined. The study highlights the importance of somatic expressions in clarifying speech situations, enhancing the emotional impact of communication, and conveying ideas in a concise and figurative manner. In addition, the paper reveals the distinctive aspects of the mentality, national values, and speech culture of the population of Southern Kashkadarya through the analysis of these expressions.

Keywords: somatic expressions, Southern Kashkadarya dialect, phraseological units, regional lexicon, psychological state, figurative speech, national mentality.

Til xalqning ma’naviy boyligi, tarixiy tajribasi va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim ijtimoiy hodisadir. Til tarkibidagi frazeologik birliklar milliy ruh va madaniy qadriyatlarni ifodalashda alohida ahamiyat kasb etadi. Shular jumlasidan, somatik iboralar inson tana a’zolari nomi asosida shakllanib, ko‘chma ma’noda qo‘llaniladigan frazeologik birliklar bo‘lib, xalq nutqining obrazlilik va ifodaviyligini oshiradi.



Somatik iboralar, xususan, Janubiy Qashqadaryo hududi aholisi nutqida keng qo'llanilib, ularning boy semantik qatlamga egaligi bilan ajralib turadi. "Ular boshqa so'zlarga birikkan holda kishilar ta'na a'zolarining holatini, kishilarning psixik, emotsional holatlarini va xarakterlarini ifoda eta oladi."²⁵ Ushbu iboralar mintaqaholisining turmush tarzi, mentaliteti va milliy qadriyatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Quyida Janubiy Qashqadaryo shevasida faol qo'llaniladigan ayrim somatik iboralar, ularning tuzilishi va ma'no xususiyatlariga qisqacha to'xtalamiz.

Somatik iboralar ko'pincha insonning ruhiy holati, hissiy kechinmalari va xarakter xususiyatlarini ifodalashda qo'llaniladi. Jumladan, "Dili cho'kib ketdi" iborasi adabiy tilda *ruhi tushmoq*, *xafta bo'lmoq* ma'nolarini anglatadi. "Yuragi qimirlab ketdi" iborasi esa adabiy tilimizda juda xursand bo'lmoq, *boshi osmonga yetmoq* mazmunida qo'llaniladi. "Dili xira bo'lmoq" iborasi *xafta bo'lmoq*, *siqilmoq* ma'nolarini bildiradi; adabiy tilda unga ma'nodosh sifatida "*qovog'idan qor yog'moq*" iborasi ham uchraydi. "*Ko'ngli sakrab ketdi*" ifodasi esa shaxsning xursand bo'lishi yoki biror ishga kuchli ishtiyoq bilan kirishishini anglatadi.

Janubiy Qashqadaryo shevasida ko'z a'zosi bilan bog'liq somatik iboralar ham keng tarqalgan bo'lib, ular asosan kishining ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, "Ko'zi tog'araday ochildi" iborasi adabiy tilda qattiq qo'rqmoq, cho'chimoq ma'nolarini bildiradi. "Ko'zini yerdan olmadi" iborasi esa uyalmoq, xijolat bo'lmoq, andisha va hayo kabi tushunchalarni ifodalaydi hamda ko'pincha aybdor yoki gunohkor shaxslar holatini tasvirlashda ishlatiladi. Hududda inson tana a'zolari bilan bog'liq iboralar keng uchraydi. Biroq ular orasida ko'z bilan bog'liq iboralar keng uchrashi misollardan ham ayondir.

Somatik iboralar nutqiy vaziyatni aniq va lo'nda tasvirlash, nutqning emotsional ta'sirini kuchaytirishda muhim vosita hisoblanadi. Masalan, "Dili ichiga ajralmoq" iborasi adabiy tilda bir necha jumla orqali ifodalanadigan kuchli qo'rquv hissini bitta obrazli ifoda orqali yetkazib bera oladi. Bu holat somatik iboralarning nutqni ixcham va ta'sirchan qilishdagi ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Janubiy Qashqadaryo aholisi kundalik muloqotda inson tana a'zolari bilan bog'liq iboralardan faol foydalanadi. Bu esa xalqning obrazli tafakkuri, nutq madaniyati hamda milliy mentaliteti o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi. Somatik iboralarning shevada ko'plab uchrashi mintaqaholisining boyligi va ifodaviy imkoniyatlarining kengligini namoyish etadi.

Xulosa qilib aytganda, Janubiy Qashqadaryo hududida qo'llaniladigan somatik iboralar mintaqaholisining nutqining ajralmas qismi bo'lib, ular xalqning kundalik hayoti, ruhiyati, an'analari va milliy qadriyatlarini aks ettiradi. Ushbu iboralar muloqotni boyitadi, nutqni emotsional jihatdan kuchaytiradi hamda fikrni qisqa, aniq va obrazli tarzda ifodalash imkonini beradi. Somatik iboralarni o'rganish hududiy leksikaning

²⁵ Маматов А. Болтаева Б. Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва семантик-прагматик тадқиқи. Тошкент. 2018. Б.15.



o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash bilan birga, xalq tilining badiiy va mantiqiy imkoniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маматов А. Болтаева Б Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва семантик-прагматик тадқиқи. Тошкент. 2018. Б.15.
2. Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Нега шундай деймиз? – Тошкент: Г.Ғулом, 1988. –352 б.
3. Мусаева Ф. Ўзбек тилида фразеологик вариантлар / Ўзбек тили ва адабиёти. 2016. №5. – Б. 91-95;

